

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONI

Masharipova Donoxon Jumanazarovna

UrDU o'qituvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, unda muhit va ota-ona hamda pedagoglarning roli, bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlanish jarayoni va maktabgacha yoshdagi bolalar orasidagi jamoachilik munosabatlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, pedagog, moslashuv jarayoni, rivojlanish, tashqi olam, jamoachilik.

Jamiyatimizda o'sib, rivojlanib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama ma'nan yetuk qilib ularga ta'lim-tarbiya berish, davlatimizning eng oliy va unitilmas vazifalaridan biri desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashqi muhitga, turli insonlar bilan munosabatga kirishishga o'rganishadi. Har bir bola o'ziga xos, turlicha xulq-atvor, turli harakter xususiyatga ega. Shu boisdan ham har bir pedagog, bola bilan munosabatga kirishayotganda uning yosh xususiyatlari va individual rivojlanishini ham hisobga olishi zarur. Bolaning ijtimoiylashuvi uning jamiyat talablariga moslashishida oila, ota-ona, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda maktab o'zaro hamkorlikda ish olib borishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rizouddin ibn Fahriddinning "Oila" nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqat-u sezgirlik bilan bo'lishi kerak.¹

Haqiqatdan ham bolani go'daklik davridan boshlab ularda yaqinlariga va boshqalarga mehribonlik qilish, ularga nisbatan qo'pollik bilan munosabat ko'rsatmaslik, sabrli bo'lishga o'rgatish zarur. Bu jarayonda oila va uning a'zolarini ularga beradigan tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. "Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy

muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishini sezamiz.¹

Chindan ham, bola tarbiyasi, uning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayoni, ijtimoiylashuvida oiladagi muhit va ota-onaning ularga qiladigan munosabati jarayonida shakllanadi. Bola go'yoki oq qog'oz, biz unga nimani yozsak, shuni ko'ramiz. Inson tug'ilib to voyaga yetib, qariguncha tarbiyalanadi. Bolaning tarbiyasiga qarab, u qanday muhitda o'sganini, tarbiya topganini ko'ramiz. Tayyorlov guruhi bolalarida muloqot shakllari va ijtimoiylashuv jarayoni yetali darajada rivojlangan bo'lishi, ularni maktabda yaxshi o'qishiga, yangi do'stlar orttirishida hamda sinfda o'z o'rniga ega bo'lishida juda ahamiyatlidir.

Mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ota-onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida ham fikr yurgizadi. Bu esa hozirgi talablarga ham javob beradi.²

Ota yoki onaning bola oldidagi obro'yi, haqiqatdan ham qo'pollik yoki uni qo'rqitish orqali erishilmaydi. Bu yo'l orqali erishilgan hurmat vaqtinchalik bo'ladi. Ota-ona bola uchun barcha muammolarning yechimi, hamma narsani biladigan inson sifatida gavdalanadi. Shu boisdan ham ota-ona bola tomonidan beriladigan savollarga erinmay javob berishi, o'zidan kattalarga nisbatan hurmatda bo'lishga o'rgatishi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqat qilishga o'rgatishi zarur.

Ijtimoiylashuv jarayonini biz, bolalarning jamiyatimizdagi mavjud bo'lgan axloq ijtimoiy xulq va axloq normalarini o'zlashtirishi deb aytsak ham bo'ladi. Ijtimoiylashuv jarayoni bu- bir yoki ikki-uch yil davom etadigan jarayon emas, balki insonning butun umri mobaynida davom qiladigan jarayondir. Buni izohi sifatida esa, inson butun umri davomida yangi, o'ziga notanish insonlar bilan uchrashadi, o'ziga tanish va tanish bo'lmagan joylarga boradi va shu muhitga moslashishiga to'g'ri keladi. Maktabgacha bo'lgan davr turli tadqiqotchi-pedagoglar tomonidan har xil talqin qilingan. L.S.Vigotskiy shunday ta'rif beradi: "Maktabgacha davr bolaning dunyoga kirishi uchun juda muhimdir. Ijtimoiy munosabatlar, jarayon uchun ijtimoiylashuv bu- insoniyat madaniyatiga aylanishdir".

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda jamoachilikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Murakkab axloqiy sifat bo'lgan jamoachilik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda do'stlashish, birga o'ynash xohishi paydo bo'lishi, u yoki bu masalani birgalikda hal etish istagi, bir-birini hurmatlash, o'rtog'ining xafalik yoki

¹ Hasanboyeva.O,Xoliqov.D; "Oila pedagogikasi" T., "Aloqachi", 2007, 125-bet.

² Hasanboyeva.O,Xoliqov.D; "Oila pedagogikasi" T., "Aloqachi", 2007, 125-bet.

xursandchiligini his eta bilish kabi ayrim ijtimoiy hislarning paydo bo'lishi orqasida yuzaga keladi.¹

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda jamoachilik munosabatlarining boshlang'ich belgilari axloqiy sifatlarning murakkab guruhidir. Bunga bolalarning do'stlashishi, birga o'ynash va mehnat qilish xohishi, qobiliyati, boshqalarning xohishi, qiziqishi bilan hisoblasha olishi, bir-biriga yordam bera olishi, topshiriqni vijdonan bajarishi, umumiy ish va umumiy narsa, buyumlar uchun g'amxo'rlik qilish kabi axloqiy sifatlarning majmuasi kiradi. Bunday his-tuyg'u, tasavvur, tushunchalar, bola shaxsining ijtimoiy yo'naltirilgan holda shakllanishiga yordam beradi, bolada insonparvarlikning dastlabki namunalari shakllanishiga ta'sir etadi.²

Tarbiyachi bolalarda ijtimoiy munosabat va tengqurlari bilan ijobiy munosabatlarni shakllantiruvchi shaxslardan biri hisoblanadi. Bolalarni tengdoshlari bilan salomlashishga, xonaga kirgan yangi odamga salom berishga odatlantiradi, guruhdagi kasal bo'lgan bolalardan xol-ahvol so'rashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi/Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022.
2. Hasanboyeva.O,Xoliqov.D; "Oila pedagogikasi" T., "Aloqachi", 2007, 122-123 – betlar
3. Jalilova S.X, Aripova S.M; Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.- Toshkent: "Faylasuflar" nashriyoti, 2017.-74-bet.
4. Yusupova. P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.TOSHKENT-"O'qituvchi"-1993-y.119-bet.

¹ Yusupova. P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.TOSHKENT-"O'qituvchi"-1993-y.119-bet.

² Yusupova. P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.TOSHKENT-"O'qituvchi"-1993-y.120-121betlar.